

## YOLG‘ON GAPIRISH VA UNI TO‘G‘RI QABUL QILISH (psixologik, axloqiy-ijtimoiy tahlil)

**Shukurova Hulkar Baxtiyorovna**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

17-umumiy o‘rta maktabi amaliyotchi psixologi

### ANNOTATSIYA

*Maqolada yolg‘on gapirish hodisasi va uni jamiyatda to‘g‘ri qabul qilish psixologik nuqtai nazardan o‘rganiladi. Yolg‘onning kognitiv, emotsiyal va ijtimoiy motivlari, shuningdek, yolg‘onni tan olish va uni qabul qilishning psixik mexanizmlari tahlil qilinadi. Mavzu doirasida turli eksperimental tadqiqotlar va zamonaviy psixologik nazariyalar tahliliga ham murojaat qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** Yolg‘on, kognitiv dissonans, ijtimoiy psixologiya, himoya mexanizmlari, haqiqatni rad etish, manipulyatsiya, haqiqat, axloq, ijtimoiy ong, kommunikatsiya.

## LIE AND ACCEPTING IT CORRECTLY (psychological, moral and social analysis)

**Shukurova Hulkar Baxtiyorovna**

*Practitioner psychologist of the 17th comprehensive school of Khatirchi district of Navoi region*

### ABSTRACT

*The article studies the phenomenon of lying and its correct perception in society from a psychological perspective. The cognitive, emotional and social motives of lying, as well as the psychological mechanisms of recognizing and accepting lies, are analyzed. The topic also includes an analysis of various experimental studies and modern psychological theories.*

**Keywords:** Lying, cognitive dissonance, social psychology, defense mechanisms, denial of the truth, manipulation, truth, morality, social consciousness, communication.

## ЛОЖЬ И ЕЕ ПРАВИЛЬНОЕ ПРИНЯТИЕ (психологический, морально-социальный анализ)

**Шукурова Хулкар Бахтиёровна**

*Практический психолог 17-й общеобразовательной школы Хатирчинского района Навоийской области*

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается феномен лжи и ее правильное принятие в обществе с психологической точки зрения. Анализируются когнитивные,*

*эмоциональные и социальные мотивы лжи, а также психологические механизмы распознавания и принятия лжи. Тема также включает анализ различных экспериментальных исследований и современных психологических теорий.*

**Ключевые слова:** Ложь, когнитивный диссонанс, социальная психология, защитные механизмы, отрицание истины, манипуляция, истина, мораль, общественное сознание, коммуникация.

## KIRISH

Yolg‘on insoniyat tarixining eng qadimiy va eng murakkab axloqiy-psixologik hodisalaridan biridir. Psixologiyada yolg‘on faqat axloqiy jihatdan emas, balki ruhiy holat, ong va xulq-atvor bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganiladi. Insonning yolg‘on gapirishga moyilligi, bu holatning psixologik sabablari va uni boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi kabi masalalar dolzarb hisoblanadi.

Yolg‘on gapirish — qadimdan axloqiy muammolardan biri sifatida e’tirof etilgan hodisadir. Sharq va G‘arb falsafasida yolg‘on ko‘pincha salbiy axloqiy bahoga ega bo‘lsa-da, tarixiy va ijtimoiy kontekstlarda uning baholanishi farq qiladi. Bugungi global axborot asrida esa yolg‘on nafaqat individual, balki institutsional va tizimli darajada ham mavjud bo‘lib, ba’zan uni “haqiqatning muqobili” sifatida qabul qilish holatlari kuzatiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada psixologik tahlil, adabiy manbalarni ko‘rib chiqish, va mavjud ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil usuli qo‘llanilgan. Asosiy yondashuv sifatida kognitiv dissonans, psixodinamik nazariya, ijtimoiy konformizm va neyropsixologik yondashuvlar tanlab olingan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu maqolamizda yolg‘on gapirish hodisasi va uni jamiyatda "to‘g‘ri" yoki maqbul qabul qilish jarayoni psixologik yondashuv bilan birlikda axloqiy va ijtimoiy kontekstda ham tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Yolg‘onning turlari, sabablari, va uning ijtimoiy normalar bilan o‘zaro aloqasi ko‘rib chiqdik. Ayniqsa, ba’zi holatlarda yolg‘onning ijobiy yoki maqbul ko‘rinish olishi muhokama etilib, bu jarayon ongli va ongsiz darajada qanday shakllanishi o‘rganiladi.

Yolg‘on — bu atayin haqiqatni yashirish yoki noto‘g‘ri axborotni berish orqali boshqa kishini chalg‘itishga qaratilgan harakatdir. Yolg‘onning bir necha asosiy shakllari mavjud:

- Oddiy yolg‘on — bilib turib, haqiqatga zid gapirish;
- Yarim haqiqat — ma’lumotning bir qismini yashirish;
- Qayta talqin — mavjud haqiqatni noto‘g‘ri tushuntirish yoki tahrir qilish;

- Ixtiyoriy e'tiborsizlik — muhim haqiqatni e'tibordan chetda qoldirish.

Falsafiy nuqtai nazardan, yolg'on gapishtish voqelikni noto'g'ri aks ettirish bo'lsa, psixologik yondashuvda bu — o'zini yoki boshqani muayyan manfaat yo'lida manipulyatsiya qilish shaklidir.

Yolg'on faqat shaxsiy axloqiy tanlov emas; u ko'pincha ijtimoiy bosim, tizimli muhit va madaniy normalar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Quyidagi omillar shular jumlasidandir:

- Jamiyatda haqiqat uchun jazolanish xavfi;
- Tashqi ko'rinish va imidjga ortiqcha e'tibor;
- Raqobatbardoshlik muhitida ustunlikka intilish;
- Ma'lumotga nisbatan befarqlik yoki noaniqlik.

Shuningdek, jamiyatlarda ba'zan yolg'on "oq yolg'on" yoki "madaniy moslashuv" shaklida ijobiy baholanadi.

Ba'zida yolg'on ochiq-oydin bilinayotgan bo'lsa-da, uni qabul qilish holatlari kuzatiladi. Bu quyidagicha izohlanishi mumkin:

- **Kognitiv dissonansni kamaytirish** — odamlar o'z e'tiqodlari va amaliy harakatlari o'rtasidagi ziddiyatni yo'qotish uchun yolg'onnéni qabul qilishadi;
- **Ijtimoiy konformizm** — ko'pchilik ishonayotgan narsaga qo'shilish ehtiyoji;
- **Pragmatik yondashuv** — haqiqatdan ko'ra foydali bo'lgan yolg'onnéni afzal ko'rish;
- **Tashviqot va manipulyatsiyaga uchrash** — axborot oqimining bir yoqlamaligi orqali ongni boshqarish.

Bu holatlar jamiyatda haqiqatning qadrsizlanishiga va yolg'onning legitimlashtirilishiga olib keladi.

Kant etikasi bo'yicha, yolg'on har qanday holatda axloqiy jihatdan noto'g'ridir, chunki u umumiyligida qonunga aylantirilishi mumkin emas. Shu bilan birga, utilitarizm yondashuvi yolg'onning oqibatiga qarab uning axloqiyligini baholaydi: agar yolg'on ko'proq foyda keltirsa, u maqbul bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan, har bir jamiyatda yolg'on va haqiqat o'rtasidagi axloqiy chegara turlichayda belgilanishi mumkin.

## **II. Yolg'onning psixologik sabablari**

**1. Himoya mexanizmlari:** Freyd maktabi nazariyasiga ko'ra, inson yolg'on gapishtish orqali o'zini himoya qilishga harakat qiladi. Bu psixik himoya mexanizmlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Ratsionalizatsiya – noto'g'ri xatti-harakatni oqlash uchun yolg'on sabablar keltirish;
- bo'yniga olmaslik (denial) – og'riqli haqiqatni inkor qilish;

- proyeksiya – o‘zidagi salbiy hislarni boshqalarga yuklash. Bu mexanizmlar yordamida inson o‘zini aybdorlik hissidan saqlab qoladi.

**2. Kognitiv dissonans:** Leon Festinger (1957) tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv dissonans nazariyasiga ko‘ra, insonlar o‘z qarashlari va xatti-harakatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni yo‘qotish uchun yolg‘onga ishonishga yoki uni tarqatishga moyil bo‘ladilar. Masalan, haqiqat og‘riqli bo‘lsa, yolg‘on unga nisbatan qulayroq psixologik yechim sifatida tanlanadi.

**3. Ijtimoiy ta’sir va konformizm:** Yolg‘on ko‘pincha ijtimoiy ta’sir natijasi sifatida shakllanadi. Solomon Asch (1951) tajribasida ishtirokchilarning aksariyati noto‘g‘ri ma’lumotga ishonishni tanlagan, chunki ko‘pchilik shunday qilayotgan edi. Bu esa ijtimoiy konformizm orqali yolg‘onni “to‘g‘ri” qabul qilish holatiga misol bo‘la oladi.

### **III. Yolg‘on va haqiqatni farqlash: ongli va ongsiz jarayonlar**

Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on gapirayotganda inson miyasining frontal korteksi faol bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, yolg‘on — bu ongli kognitiv harakat. Biroq ba’zan insonlar ongli ravishda emas, balki avtomatik ravishda ham yolg‘on gapiradi — bu holat “avtomatizm” deb ataladi va o‘zini oqlash yoki ijtimoiy maqbul bo‘lish uchun yuz beradi.

### **IV. Yolg‘onni qabul qilishning psixologiyasi**

**1. Emotsional ehtiyojlar:** Ba’zida insonlar haqiqatga qarshi emas, balki o‘z his-tuyg‘ulariga muvofiq bo‘lgan yolg‘onlarga ishonishni afzal ko‘rishi shadi. Bu holat “emosional haqiqat” deb yuritiladi.

**2. “Qulay” yolg‘on va ruhiy sog‘liq:** Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on ba’zida odamning ruhiy barqarorligini saqlab turish vositasini bo‘lishi mumkin. Misol uchun, o‘lim to‘g‘risidagi haqiqatdan himoyalanish uchun odamlar o‘zlariga tinchlantiruvchi yolg‘onlar o‘ylab topadilar.

**3. Tashviqot va ijtimoiy manipulyatsiya:** Axborot urushlari, siyosiy propaganda yoki reklama vositasida tarqatilgan yolg‘onlar jamoaviy psixologiyaga ta’sir ko‘rsatadi. Bir xil yolg‘on takrorlangan sayin, u ishonchliroq tuyuladi.

Shuningdek, Psixologik jihatdan yolg‘onning ijobiy tomonlari bormi? kabi savol tug‘lishi tabiiy. Fikrimizcha, yolg‘on har doim ham salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Psixologlar ba’zida “oq yolg‘on” (white lie) degan tushunchani ishlatalardilar, bu boshqalarning his-tuyg‘ularini asrash yoki ijtimoiy murosaga erishish maqsadida aytildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on gapirish odatda quyidagi psixologik mexanizmlar orqali yuzaga keladi: himoya mexanizmlari orqali shaxsiy ongni asrash, kognitiv dissonansni bartaraf etish, ijtimoiy konformizm tufayli yolg‘onni to‘g‘ri deb

qabul qilish. Neyropsixologik tadqiqotlar yolg'on gapisirish va uni qabul qilishda frontal korteks faoliyatining muhim rolini ko'rsatmoqda. Emosional ehtiyojlar, tashviqot va manipulyatsiya ham yolg'onning qabul qilinishiga sabab bo'ladi.

Yolg'on inson psixikasining murakkab tomonlarini aks ettiradi. U shunchaki axloqiy buzilish emas, balki shaxsiy ehtiyojlar, ijtimoiy bosim va ruhiy barqarorlikni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan psixologik mexanizm hamdir. Oq yolg'on tushunchasi shuni ko'rsatadiki, ba'zan yolg'onning ijtimoiy uyg'unlikni saqlashda foydali bo'lishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yolg'on gapisirish va uni to'g'ri qabul qilish murakkab axloqiy va ijtimoiy hodisa bo'lib, faqat shaxsiy mas'uliyat bilan emas, balki jamiyatdagi umumiy ong, axborot madaniyati va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Yolg'onning jamiyatda qabul qilinishi, ko'pincha shaxsiy ong emas, balki tashqi bosimlar, manfaatlar va normalar bilan belgilanadi. Shu sababli, yolg'onning ildizini yo'qotish uchun faqat individga emas, balki ijtimoiy tizimga ham e'tibor qaratish zarur.

Psixologik nuqtai nazaridan qaralganda, yolg'on — inson onging murakkab mexanizmlaridan biridir. U shunchaki axloqiy tanlov emas, balki ichki ziddiyatlardan qochish, ijtimoiy muvofiqlikni saqlash, emotsiyonal ehtiyojlarni qondirish vositasidir. Shu sababli yolg'oni tushunish va unga qarshi kurashish uchun nafaqat axloqiy, balki chuqur psixologik yondashuv zarur bo'ladi.

## REFERENCES

1. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
2. Feldman, R. S. (2021). Understanding Psychology (14th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Ekman, P. (2020). Telling Lies: Clues to Deceit in the Marketplace, Politics, and Marriage (4th ed.). W. W. Norton & Company.
4. O'Sullivan, M. (2022). The Psychology of Deception: What Research Tells Us. Annual Review of Psychology, 73, 203–226.
5. Sulaymonova, S. N. (2023). IBN MISKAVAYHNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIDA JAMOAVIY HAMJIHATLIK VA O'ZARO MUHABBAT MASALASI. Beruniyning xalqaro ilmiy jurnali , 2 (2), 203-208.
6. Сулаймонова,, Ш. Н. (2023). КОНФУЦИЙ ВА ИБН МИСКАВАЙХ АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИДАГИ УЙҒУНЛИК. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (21), 732-738.

7. Sulaymonova, S. N. (2024). “TAHZIBUL AXLOQ” ASARIDAGI AXLOQIYLIK MEZONLARINING HOZIRGI DAVRDAGI KOMIL INSON G'YALARI BILAN HAMOHANGLIGI. Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar , 4 (21), 668-672.
8. Sulaymonova, S. N. (2024). IBN MISKAVAYHNING SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDAGI O 'RNI. XXI asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI asr: Fan va ta'lim masalalari) , 1 , 68-75.